

DINIY BAG'RIKENGLIK VA UNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Otamurodov Doniyor Odilboy o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqola diniy bag'rikenglikning mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini tadqiq qilishga qaratilgan. Unda diniy bag'rikenglikning tarixiy rivojlanishi, jamiyatlar o'rtasidagi munosabatlarda tutgan o'rni hamda turli madaniyat va din vakillarining birgalikda yashash tamoyillari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada dinlararo muloqotning global miqyosda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati, zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi roli yoritiladi. O'zbekiston misolida diniy bag'rikenglikning davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanishi va uning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Diniy bag'rikenglik, jamiyat, dinlararo muloqot, madaniy xilma-xillik, globallashuv, konfessiyalararo munosabatlar, diniy erkinlik, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik tamoyillari.

Bugungi globallashuv va o'zaro bog'liq dunyoda diniy bag'rikenglik tamoyili insoniyat uchun dolzarb masalalardan biriga aylangan. Har bir jamiyatda turli din va e'tiqodga ega kishilar yashaydi va ular o'rtasida tinchlikni ta'minlash uchun diniy bag'rikenglik asosiy shart hisoblanadi. Bag'rikenglik, avvalo, har bir insonning diniy e'tiqodiga hurmat bilan qarash va turli diniy qarashlarni birgalikda yashash tamoyillari asosida qabul qilishni nazarda tutadi. Bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, millatlar va konfessiyalar o'rtasidagi totuvlikni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tarixda dinlararo nizo va tushunmovchiliklar ko'plab mojarolar, urushlar va ijtimoiy inqirozlarga sabab bo'lgan. Shu sababli diniy bag'rikenglikni rivojlantirish va uni amaliy hayotga tadbiiq etish jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki milliy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Bag'rikenglik so'zi birinchi marta XIV asr o'rtasida fransuz tilida va XV asr boshlarida ilk zamonaviy ingliz tilida qo'llanilgan. Diniy bag'rikenglik tushunchasi 1688-yildagi bag'rikenglik to'g'risidagi qonundan kelib chiqadi.[1] Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1995-yil – Xalqaro bag'rikenglik yili deb e'lon qilindi va uni amalga oshirilishida muvofiqlashtiruvchi tashkilot – YUNESKO deb topildi. Shu yili YUNESKO Bosh konferensiyasi «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»ni qabul qildi. «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi»da bag'rikenglik tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: «Bag'rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik – turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir». «Bag'rikenglik» tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, filosofiya, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Lotincha

tolerare, ya'ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan bir insonning boshqa inson dunyoqarashiga toqat qilishini bildirsa-da, etimologik tahlil uning tom ma'nosini doim ham ochib beravermaydi.[2] Diniy bag'rikenglik "bardoshlilik va hukmron din tarafdorlari tomonidan boshqa dinlarning mavjud bo'lishiga ruxsat berishdan boshqa narsa emas" degan ma'noni anglatishi mumkin, garchi ular past, noto'g'ri yoki zararli deb qaralsa ham.[3] Tarixiy jihatdan diniy bag'rikenglik bilan bog'liq aksariyat voqealar va yozuvlar ozchilikning maqomi va hukmron davlat diniga nisbatan turlicha qarashlarni o'z ichiga oladi.[4] Biroq, din ham sotsiologikdir va bag'rikenglik amaliyoti doimo siyosiy jihatga ega bo'lgan.[5] Dunyoda globallashuv jarayoni shiddatli tus olgan bugungi kunda turli madaniyat va dinga mansub xalqlar o'rtasida o'zaro muloqot va hamkorlikni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Zero, bugun yakka shaxs yoki alohida millat va davlatning o'z qobig'idan chiqmasdan taraqqiy etishi tasavvurga sig'maydi. Bunda esa, avvalo, bag'rikenglik tamoyili ustuvor bo'lmog'i zarur. O'z navbatida, mazkur tamoyilning qaror topishi har qanday davlatning tinch, osoyishta va farovon hayotiga ham kafolatdir. Prezidentimiz 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalar haqida to'xtalar ekan, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish taklifini ilgari surgan edi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasi 51-yig'ilishida mazkur rezolyutsiya 193 ta a'zo mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi. "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining aynan O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilishida o'ziga xos ramziy ma'no bor. Bugun millatlararo totuvlik va konfessiyalararo bag'rikenglikni ta'minlash borasida O'zbekiston namunasi jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilmoqda.[6] Darhaqiqat, mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo va dinlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishda o'ziga xos tajriba orttirildi. O'zbekiston hukumati tomonidan diniy bag'rikenglik siyosati odilona olib borilmoqda. Har qanday ko'pmillatli va ko'p dinli davlatda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik, jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotga mustahkam zamin yaratuvchi, uning istiqbolini belgilab beruvchi omillardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, tashqi siyosatni olib borish o'zaro manfaatdorlik va amaliylik, davlatimiz mustaqilligi va mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashda diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingan davrda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik yo'li bilan tinchlik va barqaror taraqqiyot asoslarini mustahkamlashda barcha dinlar o'rtasida diniy qarama-qarshiliklar bo'lmagan. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Davlatimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlatdir. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek istiqomat qilmoqda. Bu borada xalqimizning qadimiy bag'rikenglik an'analari muhim o'rin tutishi shubhasiz".[7] Mamlakatimizda har bir kun tinch, osuda va munavvar o'tmoqda. Ana shu osoyishlatik omillaridan biri – diniy bag'rikenglik tamoyilini yanada mustahkamlash hukumatimizning doimiy diqqatida. Yurtimizda turfa diniy e'tiqodga ega turli millat vakillari bir zaminda buyuk g'oya, sof niyat yo'lida xamkor, hamjihat yashashi bag'rikenglikning yorqin namunasi. O'lkamizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari 16 ta diniy konfessiyaga e'tiqod qilib yashab kelmoqda. Mamlakatimiz davlat ta'lim muassasalarida dars yetti tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ko'rsatuvlari jami o'n ikki tilda namoyish etiladi, o'ndan ortiq tilda gazeta, jurnal chop etilyapti. Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 156 ta milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatadi. Bundan tashqari yurtimizda 16 ta diniy konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot mavjud. Diniy bag'rikenglik turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqdan qat'i nazar, barchaning yonma-yon, o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Har kim o'z

e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etmog'i lozim. Bag'rikenglik bilan o'zgaralar uzrini qabul qilish, og'irlikni zimmasiga olib, boshqalarga yengillik baxsh etish muqaddas dinimiz ta'limotida ham zohir. Dunyoning turli hududlarida diniy kurash, urush avj olayotgan bir paytda tinchliksevar mamlakatimiz O'zbekistonda 16 noyabr – "Xalqaro bag'rikenglik kuni" alohida e'tibor bilan, millatlar umumiy bayrami sifatida keng nishonlanadi. Mazkur sanaga bag'ishlab Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi shafeligida "Bag'rikenglik haftaligi" doirasida turkum tadbirlar o'tkazilishi ham yaxshi an'anaga aylangan.[8] Xulosa qilib aytganda, diniy bag'rikenglik jamiyatdagi turli e'tiqod va qarashlarga nisbatan hurmatni qaror toptiradigan tamoyildir. U jamiyatda tinchlik, hamjihatlik va o'zaro hurmat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Turli diniy qarashlarga ega insonlarning birgalikda yashashi va hamkorlik qilishi nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki madaniyatlar o'rtasida o'zaro boyish va anglashuvni kuchaytiradi. Bugungi kunda diniy bag'rikenglik ijtimoiy va global barqarorlikning muhim shartlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Uni targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash nafaqat ekstremizm va radikalizmning oldini olishda, balki inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday ekan, diniy bag'rikenglikni rivojlantirish har bir jamiyatning ahloqiy va madaniy taraqqiyoti uchun zarur omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son qarori. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil.
2. Z.M.Islomov, N.A.Muhamedov, F.A.Sindarova "Dinshunoslik" TOSHKENT «Niso oligraf» 2016
3. "Toleration (n)". Online Etymology Dictionary. Retrieved 19 November 2018.
4. Zagorin, Perez (2003). How the Idea of Religious Toleration Came to the West Princeton, N.J.: Princeton University Press ISBN 978-0-691-09270-6. OCL C 509 822 70
5. . Vahland, Joachim (2017). "Tolerance discourses". Zeno. No. 37. pp. 7–25.
6. Gervers, Peter; Gervers, Michael; Powell, James M., eds. (2001). Tolerance and Intolerance: Social Conflict in the Age of the Crusades. Syracuse University Press. ISBN 978-0-8156-2869-9.
7. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
8. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 15-28.
9. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
10. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
11. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.

12. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
13. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
14. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
17. <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/27167-bag-rikenglik-azaliy-qadriyat>
18. https://uza.uz/oz/posts/millatlararo-totuvlik-va-diniy-bagrikenglik-tinchligimiz-garovi_538292.